

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNING MOSLASHUV DAVRI VA UNING AXAMIYATI

**Kalandarova Fazilaton Toxirovna**

*Ulug'nor tumani 14-Davlat Maktabgacha Ta'lism Tashkiloti direktori.*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada bolalarni maktabgacha ta'lism tashkilotlariga moslashuv jarayoni va bosqichlari, uning natijasida bola ruxiyatida yuzaga keladigan o'zgarishlar, bu davrda ota-onalar va tarbiyachilarga beriladigan tavsiyalar, nimalarni amalga oshirish va nimalarga alovida e'tibor berish kerakligi to'grisida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** bola, maktabgacha ta'lism, moslashuv, jarayon, kun tartibi, odatlar, sharoit, oila muxiti.

Maktabgacha ta'lism uzlusiz ta'limning poydevori xisoblanib, jamiyat uchun zarur bo'lgan yetuk shaxsni aynan shu bo'g'inda shakllantirish boshlanadi. Bugungi kunda ushbu soxaga oid qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar, xar bir bola Maktabgacha ta'limga qamrab olish, bugungi kunning talabi ekanligi ko'rsatib turibdi. Maktabgacha ta'limda bolalarni maktabga tayyorlov dasturlari, xar bir bolada kechadigan psixologik, fiziologik va individual xususiyatlarini inobatga olgan xolda ishlab chiqilmoqda. Maktabgacha ta'lism tashkilotlariga bolalarni qamrab olish uchun davlatimiz tomonidan barcha kerak bo'lagan shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Tizimda xar bir bolani Maktabgacha ta'limga qamrab olinishi va bu jarayonda ilg'or pedagogik tajribalarni amaliyotga qo'llab, zarur ko'rsatma va tavsiyalarni bergen xolda ish olib borilmoqda. Tarbiyalanuvchilarning MTT larda moslashuv davrining qay tarzda o'tishi, bola rivojlanishida muxim ahamiyat kasb etadi.

Bolajonlarni MTTga kelishi go'yoki uni boshqa olamga tushib qolishiga qiyoslasak bo'ladi. Zero bolajonlar o'zlarining ilk olamidan ya'ni, oila muxitidan ajralgan xolda MTT muxitiga kirib boradi. Bu jarayon esa bolaning xatti-xarakatlarida turli o'zgarishlarga, injiqliklari, stressga, uyqu jarayoning buzilishiga va ishtaxaning yo'qolishiga olib keladi. Bu jarayon bolada onadan ajralish bilan kechishi esa unda sezuvchanlikni oshirib, xar bir yangi narsaga qo'rquv bilan qarashini kuchaytiradi. Buning salbiy oqibatlarini oldini olish, bu jarayon bola ruxiyatiga jiddiy zarar yetkazmasligi, rivojlanishida nuqsonlar yuzaga keltirmaslik va bu jarayon birmuncha yengil o'tishi uchun zarur choralar ko'rishi kerak.

Bolalarni MTTga moslashuvi bir nechta bosqichni o'z ichiga oladi:

1-bosqich; bolani MTT sharoitiga kirishi. Bunda bola ma'lum muddatga oilaviy muxitdan ajralib, yangi sharoitga kirib boradi. Tarbiyachidan bu davrda katta maxorat talab etiladi. Bolani xar qanaqa vaziyatda xam e'tiborini torta olishi karak.

2-bosqich; MTTda bola o'zi uchun tanish obyektlarni qidiradi. Bu davrda bolaga iloji boricha o'zi bilan birha o'ynaydigan bolalarni uchrashuvlarini tashkil qilish kerak (agar maxallasida birga o'ynaydigan bolalar shu MTTda yursa). Bola o'zik ko'proq sevib o'ynaydigan o'yinchoqlarini o'ynashini tashkillashtirish.

3-bosqich; MTTga moslashuvi. Bu davrda tarbiyachi va ota-onaning faoliyklari va e'tiborliligi barobar bo'lishi lozim. Agar bola oilaviy muxitida, yon atrofidagilar bilan o'zaro muloqotga kirisha olgan va o'z- o'ziga xizmat ko'rsatishning boshlangich xarakatlarni (o'zi kiyinib-yechinishi, ovqatlanishning ilk ko'rinishlarini amalga oshira olishi, mustaqil xojatga bora olishi) mustaqil bajara olsa bu jarayon oson va yengil kechadi. Buning natijasida bola MTTda bolalar bilan mustaqil muloqatga kirisha oladi, buning natijasi o'ziga do'stlar ortiradi, o'zi uchun sevimli bo'lgan o'yinchoqlarni saralaydi, mazmunli o'yinlar bilan o'zini tuta oladi, faol bo'ladi va MTTga tez moslashadi.

Bolaning moslashuvi uning unib o'sgan oilaviy sharoiti va muxitiga qarab turlicha bo'ladi. Ayrim bola 1-1.5 xaftha moslashsa, ayrimlarida bu jarayon 1 oy, 1 yilgacha davom atadi.

Bolaning MTTga moslashuv davrida quydagilarga amal qilinishi karak;

1. Uydagi kun tartibi MTT guruxi rejimiga moslashtirish kerak. Bolaning uqlash, o'ynash, sayr va ovqatlanish paytlari MTT rejimiga yaqin tarzda mutanosib bo'lishi karak.

2. Bolaning ratsioniga MTT menyusini tanishtirish kerak. Sekin astalik bilan ovqatlanish ratsioniga yangi taomlarni kiritib borish kerak.

3. Bolani ko'proq mustaqil bo'lishiga erishish. Tarbiyachi bolani rag'batlantirib borish va uni ruxlantirish orqali mustaqil xarakatlarni amalga oshirishga erishadi. Bolada mustaqillikka erishish ishtiyoqi ortib boradi.

4. Tarbiyachi bola bilan ko'proq yakka tartibda shug'ullanib borishi va tinimsiz muloqotda bo'lishai kerak. Bola MTTda xam unga onasi kabi mexribon va g'amxor shaxs mavjud ekanligiga ishonch xosil qilishi kerak. Bu vazifani xech shubxasiz tarbiyachi bajarishi lozim.

5. Bolani ko'proq qo'llab-quvvatalash va rag'batlantirish, arzimagan yordami xam axamiyatga molik ekanligini xis qildirish. Buning natijasida esa bolada o'ziga bo'lagan ishonchi ortadi.

6. Bolani umuman jazolamaslik, qattiq tanqid qilmaslik va qo'rqitmaslik kerak. Buning natijasida bolani obro'si oshib boradi, jur'ati va qat'iyati shakllanadi.

Bolani MTTga moslashuv jarayonida ota-onada va MTT jamoasi birgalikda, xar bir jarayonlarni kechishida xamkorlikni kuchaytirgan xolda ish tashkil etilib borilsa, bu jarayon bola ruxiyatida va fiziologiyasida xech qanday salbiy asoratlarsiz kechadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Maktabgacha ta'lif tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 09.09.2017 yil. PQ-3261-son.

2. I.V.Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudxonova, SH.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi – T:2022.

3. SH.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" -T:2013-yil.

4. T.N.Tossheva "Umumiy pedagogika" (Pedagogik maxorat) "Durdon" nashriyoti Buxoro – 2021.

Axborot manbalari:

<https://mdo.uz/>